TOSHKENT VILOYATI QUYI CHIRCHIQ TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 13 - sentabr 413-10-140-Q/22 Quyi Chirchiq tuman hokimligi

Quyi Chirchiq tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to`g`risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qaroriga asosan Yuqori Chirchiq tumani xududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida, **qaror qilaman:**

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tumani hokimining o‘rinbosari G’Abdimuratov, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi M.Axmedovlarga:

- fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa

tadbirlarni tashkil etish;

- sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi M.Axmedov hamda qabristonlarning ma’muriyati:

-xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

-qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati Z.Akbarov mazkur qarorni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari G‘.Abdimurotov zimmasiga yuklansin.

Hokim **A.Xolmuradov**

Quyi Chirchiq tuman hokimining
2022 yil 13 sentabrdagi
413-10-140-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Quyi Chirchiq tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha

TARIFLAR MIQDORI

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	BHMga nisbatan (foiz xisobida)
1.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar katta o‘lchamda)	1 o‘ringa	bepul
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul
3.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar kichik o‘lchamda)	1 o‘ringa	bepul
4.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar 3 yoshgacha)	1 o‘ringa	bepul
5.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	bepul
6.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul